

## HINDISTONNING QO'SHNILARI BILN HUDUDIY MASALALARI

*Amanov Allabergan Kutlimuratovich  
Abu Rayhon Beruniy nomidagi  
Urganch davlat universiteti  
Geografiya kafedrasida katta o'qituvchisi  
Ko'palova Hilola Tohir qizi  
Abu Rayhon Beruniy nomidagi  
Urganch davlat universiteti  
Geografiya yo'nalishi 2 – bosqich talabasi*

**Аннотация:** Ushbu maqolada Hindiston Federativ Respublikasi qo'shnilari bilan bog'liq hududiy masalalari va ularning kelib chiqish sabablari haqida fikr yuritilgan. Mazkur mavzuni o'rganishda tarixiylik, kartografik va siyosiy-geografik tahlil usullaridan foydalanilgan holda, Hindistonning qo'shnilari bilan bog'liq hududiy masalalarini bartaraf qilish yechimlari haqida o'ziga xos mulohazalar berilgan.

**Калит so'zlar:** Aksay hududi, Arunachal-Pradesh, Gilgit-Baltistan, Jammu va Kashmir, Doklam inshooti, Kalapani, Limpiyadhura, Lipulekh, Tavang tumani.

## ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ИНДИИ С ЕЕ СОСЕДЯМИ

*Аманов Аллаберган Кутлимуратович  
Старший преподаватель кафедры географии  
Ургенчский государственный университет  
имени Абу Райхана Аль-Бируни  
Купалова Хилола Тахир кизи  
Студентка 2-курса географии  
Ургенчский государственный университет  
имени Абу Райхана Аль-Бируни*

**Аннотация:** В этой статье рассматриваются территориальные проблемы Федеративной Республики Индия со своими соседями и их причины. При изучении данной темы, с использованием методов историзма, картографического и политико-географического анализа, даны конкретные соображения о решениях территориальных вопросов Индии, связанных с ее соседями.

**Ключевые слова:** Аксайский район, Аруначал-Прадеш, Гилгит-Балтистан, Джамму и Кашмир, Доклам, калапани, Лимпиадхура, Липулех, Тавангский район.

## TERRITORIAL ISSUES OF INDIA WITH ITS NEIGHBORS

*Amanov Allabergan Kutlimuratovich*  
*Senior Lecturer, Department of Geography*  
*Urgench State University*  
*named after Abu Rayhan Al-Biruni*  
*Kupalova Hilola Tahir kizi*  
*2nd year geography student*  
*Urgench State University*  
*named after Abu Rayhan Al-Biruni*

**Abstract:** This article examines the territorial problems of the Federal Republic of India with its neighbors and their causes. When studying this topic, using the methods of historicism, cartographic and political-geographical analysis, specific considerations are given on solutions to India's territorial issues related to its neighbors.

**Keywords:** Aksay area, Arunachal Pradesh, Gilgit-Baltistan, Jammu and Kashmir, Doklam facility, Kalapani, Limpiyadhura, Lipulekh, Tavang district.

**KIRISH.** 1947 yilgacha Buyuk Britaniya mustamlaksi bo'lgan Hindiston ulkan hudud egasi edi (xaritaga qarang).



*1-rasm.* Hindiston imperiyasining hududi[4].

Ushbu imperiyaga asosni esa “Boburiy sulolasi” solgan va 300 yildan ortiq davrda mamlakatni boshqarib kelgandi. Keyinchalik bu yerlar inglizlar tomonidan bosib olinib mustamlakaga aylantirilgandi. Janubiy Osiyodagi II jahon urushidan keyingi Jahon siyosiy xaritasidagi o'zgarishlarga Hindistonning mustaqillikka erishishi va uning bir nechta davlatlarga bo'linishi bo'ldi. Albatta bunday jaryonda yangi tashkil topgan mamlakatlar ortasida hududiy kelishmovchiliklar shakllandi va ayrim hududiy masalalar hali-hanuz o'z yechimini topmay turli nizolar va kelishmovchiliklarga sabab bo'lmoqda.

**ASOSIY QISM.** XX sar o'rtalarida mustaqillikka erishgan Hindiston quyidagi 7 ta davlat: Xitoy, Pokiston, Nepal, Butan, Bangladesh, Myanma, Afg'oniston(hozirda ushbu davlat bilan chegarsi amalda yo'q) bilan chegaradosh va shuningdek, Hindiston dengiz orqali Shri-Lanka va Maldiv orollariga yaqin joylashgan. Ushbu mamlakatlarning asosan ikkitasi bilan ko'proq hududiy kelishmovchiliklarga doimiy ravishda kirib kelgan. Ular katta hududga va ko'p aholi sonigaega Xitoy va Pokistondir. Ayni paytda har ikkala davlat yadro arsenaliga ega, jumladan Hindiston ham, bu esa tomonlarning kurashish imkoniyatlarini tenglashtiradi. Quyida biz Hindistonning hududiy masalalari bilan bog'liq yaqin tarixdagi siyosatini ko'rib chiqamiz.

***Hindiston va Xitoy*** o'rtasida uzoq vaqt davomida chegaraviy nizolar bo'lib kelgan. Eng muhim nizolar 1962-yilda Xitoy-Hindiston urushiga olib keldi. Bugungi kunda Hindiston Xitoy bilan o'zining shimoliy-sharqiy hududlaridagi chegarasi (Aksay Chin va Arunachal Pradesh) bo'yicha tortishuvlarni davom etmoqda.

Hindiston va Xitoy o'rtasidagi chegaraviy muammolar tarixan murakkab va uzoq davom etgan masaladir. Hindiston va Xitoy o'rtasidagi eng muhim va murakkab nizo Aksaychin hududiga tegishli. Bu hududni Xitoy, asosan Szinjiang viloyatining bir qismi sifatida boshqaradi, ammo Hindiston uni Ladax mintaqasining bir qismi deb hisoblaydi. Aksaychin, asosan tog'li hududlardan

iborat bo'lib, strategik ahamiyatga ega. 1962-yilda Hindiston va Xitoy o'rtasida bo'lib o'tgan qurolli to'qnashuvlarda Xitoy qo'shinlari Aksaychin hududini egallab oldi, lekin Hindiston bu hududni hali ham o'ziga tegishli deb hisoblaydi.



2-rasm. Aksay-Chin. Hindiston va Xitoy o'rtasidagi bahsli hudud[4].

Hindistonning shimoli-sharqiy hududi Arunachal Pradeshni Xitoy Janubiy Tibetning bir qismi sifatida da'vo qiladi, Hindiston esa bu yerlarni o'zining tarixiy

tarkibiy qismi deb hisoblaydi. Bu hudud ham Xitoy va Hindiston o'rtasidagi doimiy nizo manbalaridan biridir [4]. Shuningdek bu joyda nizoli Tavang tumani ham joylashgan. Hindiston Xitoyga bir necha bor “Arunachal-Pradesh Hindistonning ajralmas qismi bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi”, deb bir necha bor ta’kidlagan [3]. Hindiston Xitoy munosabatlari ular chegaradosh boshqa mamlakatlar orqali ham namyon bo‘ladi jumladan Pokiston, Nepal va Butan kabi Hindistonning g‘arbiy va shimoliy chegaradosh qo‘shilari bilan.



**3-rasm.** Arunachal-Pradesh. Hindiston va Xitoy o'rtasidagi bahsli hudud[4].

Hindiston va Xitoy o'rtasidagi boshqa bir katta nizo 2017-yilda Doklam hududida yuz berdi. Doklam, Xitoyning Butan bilan bo'lgan chegarasiga yaqin joylashgan, Xitoy va Hindiston uchun strategik ahamiyatga ega hududdir. Bu hududda Xitoyning infratuzilma qurilishi va Hindistonning bu jarayonni to'xtatishga urinishlari ikki mamlakat o'rtasida qizg'in diplomatik inqirozga olib keldi.

Chegara bo'yicha qo'shimcha ziddiyatlar Xitoy va Hindiston o'rtasida harbiy va diplomatik aloqalar ko'plab hududiy nizolarni o'z ichiga oladi. 2020-yilgi

Galvan vodiysidagi to'qnashuvlar, bu ikki mamlakat o'rtasida chegaraviy nizolarning yana bir yangi bosqichini ko'rsatdi. Bu to'qnashuvda bir nechta askarlar halok bo'ldi va bu nizo o'zgaruvchan xususiyatlarga ega bo'lib, harbiy harakatlar va diplomatik muloqotlar o'rtasidagi o'zaro murakkablikni yanada oshirdi.

***Hindiston va Pokiston*** o'rtasidagi chegaraviy muammolar asosan Kashmir masalasi atrofida to'plangan. Ushbu masala 1947 yilda Hindiston va Pokiston mustaqillikka erishganidan beri davom etmoqda. Quyida asosiy muammolar va sabablar keltirilgan.

Kashmir masalasi 1947 yilda Britaniya Hindistonining bo'linishi chog'ida Kashmir knyazligi ikki davlatdan biriga qo'shilish haqida qaror qabul qilishi kerak edi. Biroq, knyazlik hukmdori Hindistonga qo'shilishga qaror qildi, bu esa Pokistonning noroziligiga sabab bo'ldi. Shu sababli, Hindiston va Pokiston o'rtasida bir necha bor urushlar bo'lib o'tdi (1947-1948, 1965, 1971 va 1999 yillarda). 1949 yilda BMT vositachiligida o't ochishni to'xtatish chizig'i (Line of Control - LoC) belgilandi, ammo bu hudud rasmiy chegaralar sifatida tan olinmagan. Hindiston Jammu va Kashmirni o'zining ajralmas qismi deb biladi, Pokiston esa uni o'z hududi deb da'vo qiladi.

Pokiston Kashmirda hind boshqaruviga qarshi harakatlarni qo'llab-quvvatlaganlikda ayblanadi. Hindiston Pokistonni terrorchilik guruhlariga boshpana berishda va ularga yordam berishda ayblaydi, xususan 2008 yildagi Mumbay hujumlari bilan bog'liq holda.

2019 yilda Hindiston Konstitutsiyasining 370-moddasini bekor qilib, Jammu va Kashmirning maxsus maqomini olib tashladi. Bu qaror Pokiston tomonidan keskin norozilikka sabab bo'ldi va ikki davlat o'rtasidagi keskinlikni yanada kuchaytirdi.

***Hindiston va Nepal*** o'rtasidagi chegaraviy muammolar asosan Kalapani, Limpiyadhura va Lipulekh hududlari atrofida vujudga kelgan. Ushbu muammolar ko'p yillardan beri davom etib kelmoqda.

Chegaraning noaniqligi Hindiston va Nepal o'rtasidagi chegara 1815 yilda imzolangan Sugauli shartnomasi asosida belgilangan. Ushbu shartnomaga ko'ra, Kali daryosi Nepal va Britaniya Hindistoni o'rtasidagi chegara sifatida qabul qilingan. Biroq, Kali daryosining qayerdan boshlanishi haqidagi talqinlar Hindiston va Nepal o'rtasida farqlanadi. Nepal Limpiyadhura hududini Kali daryosining boshi deb hisoblab, ushbu hududni o'zining qismi deb biladi. Hindiston esa Kalapani va Lipulekhni o'z hududi deb e'lon qilgan.

Kalapani hududi Uttarakhand shtatida joylashgan bo'lib, strategik ahamiyatga ega. Nepal ushbu hududni o'ziga tegishli deb hisoblaydi, chunki Kali daryosi chegaradan o'tadi. Hindiston esa Kalapani Hindistonning tarkibiy qismi ekanini ta'kidlaydi.

Lipulekh dovoni Xitoy bilan chegaradosh bo'lib, Hindiston savdo va transport yo'li sifatida foydalanadi. 2020 yilda Hindiston Lipulekhni bog'laydigan yo'lni qurishni boshlagan, bu esa Nepal tomonidan norozilik bilan qarshi olindi.

2019 yilda Hindiston Jammu va Kashmirning maxsus maqomini bekor qilganidan so'ng, yangi siyosiy xaritani e'lon qildi. Ushbu xaritada Kalapani Hindiston hududi sifatida ko'rsatilgan edi. Nepal bunga javoban 2020 yilda o'zining yangi siyosiy xaritasini e'lon qildi, unda Kalapani, Limpiyadhura va Lipulekh Nepal hududi sifatida ko'rsatilgan.

***Hindiston va Butan*** o'rtasida an'anaviy tarzda iliq va do'stona munosabatlar mavjud bo'lib, hozirgi kunga qadar jiddiy chegaraviy mojarolar kuzatilmagan.



*4-rasm.* Doklam inshooti Hindiston va Xitoy o'rtasidagi yangi kelishmovchilik hududi[6].

Hindiston va Butan o'rtasidagi chegara uzunligi taxminan 699 kilometr bo'lib, bu chegara aniq belgilangan. Hindiston Butan bilan chegara xavfsizligini ta'minlashda yordam ko'rsatadi, chunki Butan Hindiston va Xitoy o'rtasidagi strategik joyda joylashgan. Hindistonning chegarada xavfsizlik masalalarini diqqat bilan kuzatishi Xitoyning Butan hududiga da'volari bilan bog'liq.

Doklam masalasi-2017 yilda Xitoyning Butan bilan chegaradosh Doklam platosida yo'l qurishga urinishi Hindiston va Xitoy o'rtasida ziddiyatga olib keldi. Hindiston Butanning suverenitetini himoya qilish uchun Doklam platosida harbiy faoliyatni boshladi. Ushbu voqea Butan va Hindiston o'rtasida mustahkam strategik sheriklikni ko'rsatadi. Biroq, Butan ushbu masalada ehtiyotkorlik bilan harakat qiladi va Xitoy bilan ziddiyatni kuchaytirmaslikka intiladi.

***Hindiston va Bangladesh*** o'rtasidagi chegaraviy masalalar bir necha o'n yillardan beri davom etib kelmoqda. Ushbu ikki davlat o'rtasidagi chegaraning uzunligi taxminan 4,096 kilometr bo'lib, bu Hindistonning eng uzun xalqaro chegarasidir.

Yer almashinuvi (Enklavlar masalasi) Hindiston va Bangladesh o'rtasidagi eng katta chegaraviy muammolardan biri enklavlar (chegaradagi izolyatsiya



qilingan hududlar) edi. Enklavlar masalasi bo'yicha noaniqlik sababli hududda yashovchi aholi yuridik va iqtisodiy muammolarga duch kelgan. 2015 yilgi Hindiston-Bangladesh Yer Almashinuvi Bitimi orqali ushbu masala hal qilindi. Ushbu bitim bo'yicha ikki davlat bir-biriga tegishli bo'lgan 162 ta enklavni almashtirdi va aholiga yashash joyini tanlash imkonini berdi. Bu tarixiy qaror chegaraviy muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Bengal ko'rfazi dengiz chegarasi Hindiston va Bangladesh o'rtasida dengiz chegaralari bo'yicha bahs ham mavjud edi. 2014 yilda BMT xalqaro sudining qarori bilan ushbu masala Bangladesh foydasiga hal qilindi. Bangladeshga qo'shimcha dengiz hududlari berildi, bu esa baliqchilik va tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi.

*Hindiston va Myanma* o'rtasida chegaraviy masalalar asosan chegara xavfsizligi, etnik guruhlar faoliyati va noqonuniy faoliyatlar bilan bog'liq. Ushbu ikki davlat o'rtasidagi chegara uzunligi taxminan 1643 kilometr bo'lib, Shimoliy-Sharqiy Hindiston va Myanma o'rtasida cho'zilgan. Hindiston va Myanma chegarasi o'rmonli va tog'li hududlardan iborat bo'lib, ko'plab joylarda chegarani oson kesib o'tish mumkin. Bu noqonuniy faoliyatlarni, jumladan: odam savdosi, narkotik moddalar kontrabandasi, qurol savdosi va yovvoyi hayvonlar kontrabandasini kuchaytiradi. Hindiston noqonuniy faoliyatlarni nazorat qilish uchun chegara xavfsizligini kuchaytirishga urinmoqda.

2015 yilda Hindiston armiyasi Myanma chegarasi yaqinida Naga guruhlariga qarshi harbiy amaliyotlar o'tkazdi, bu esa Myanma bilan diplomatik muammolarni yuzaga keltirdi. Myanmada yuz bergan siyosiy beqarorlik va iqtisodiy qiyinchiliklar sababli ko'plab odamlar Hindistonga noqonuniy ravishda ko'chib kelmoqda. Bu masala, ayniqsa, 2021 yildagi harbiy to'ntarishdan keyin kuchaygan.

Hindiston noqonuniy immigrantlarning Shimoliy-Sharqiy hududlarida demografik muvozanatni o'zgartirayotganidan xavotirda.

*Hindiston va Afg'oniston* o'rtasidagi tarixiy jihatdan aniq chegaraviy muammolar mavjud emas, chunki Hindiston va Afg'oniston bugungi kunda to'g'ridan-to'g'ri geografik chegaraga ega emaslar. Ammo tarixiy va strategik jihatlarni hisobga olgan holda, ushbu ikki davlat o'rtasida ayrim bilvosita muammolar paydo bo'lishi mumkin.

Hindiston va Afg'oniston o'rtasida Durand chizig'i bo'ylab tarixiy aloqa mavjud edi, ammo hozirgi kunda bu hudud Pokiston nazorati ostida. Gilgit-Baltistan va Jammu va Kashmirning Pokiston tomonidan boshqarilayotgan qismi Hindiston va Afg'onistonni bevosita bog'lab turishi mumkin bo'lgan hududdir. Hindiston Afg'oniston bilan bevosita savdo va transport aloqalarini rivojlantirishni istaydi, ammo Pokiston ushbu tranzit yo'llarni bloklab qo'ygan.

Hindiston va Afg'onistonning Pokiston bilan murakkab munosabatlari Hindiston-Afg'oniston aloqalariga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Hindiston Afg'onistonda infratuzilma loyihalarini amalga oshirish va rivojlanishni qo'llab-quvvatlash orqali o'z ta'sirini kuchaytirmoqchi, bu esa Pokistonning noroziligiga sabab bo'lmoqda.



**5-rasm.** Gilgit bir vaqtalar Hindistonning Afgoniston bilan chegara hududi sanalgan[4].

Hindiston Afg'onistonda joylashgan terrorchilik guruhlar, xususan, Jaish-e-Muhammad va Lashkar-e-Taiba kabi guruhlarning faoliyatidan xavotirda. Ushbu guruhlarning Pokiston orqali Hindistonga tahdid solishi ehtimoli yuqori.

**XULOSA.** Hindiston bilan chegaradosh mamlakatlar u bilan oqilona siyosat olib borishga harakat qiladilar negaki, jadal rivojlanishdagi mazkur mamlakatning ham iqtisodiy, ham harbiy salohiyati yildan yilga kuchayib bormoqda.

*Hindiston va Xitoy* o'rtasidagi bu muammolar, har ikki davlatning siyosiy, iqtisodiy va harbiy pozitsiyalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, bu chegara nizolarining mintaqaviy barqarorlikka ta'siri katta bo'lib, butun Osiyo va dunyo bo'ylab xavfsizlik muammolariga olib kelishi mumkin.

*Hindiston va Pokiston* davlatlari o'rtasida muammoni tinch yo'l bilan hal qilish uchun turli muzokaralar o'tkazilgan, biroq hali samarali natijaga

erishilmagan. Mazkur masala Janubiy Osiyodagi xavfsizlik va barqarorlikka jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

*Hindiston va Nepal* munosabatlarida Nepalning Hindiston harakatlariga qarshi noroziligi diplomatik munosabatlarda taranglikni keltirib chiqardi. Hindiston Nepalni Xitoy bilan yaqinlashayotganlikda ayblaydi. Har ikkala davlat chegaraviy muammolarni hal qilish uchun muzokaralar o'tkazishga uringan, ammo hali aniq natijalarga erishilmagan.

Ushbu hududlar strategik jihatdan muhimdir, chunki ular Hindistonning Xitoy bilan savdo va harbiy yo'llariga yaqin joylashgan. Nepalning bu masalada qat'iy pozitsiyasi uning milliy suverenitet va chegaralar ustidan nazoratni saqlab qolish istagi bilan bog'liq. Hindiston va Nepalning tarixiy yaqinligi va madaniy bog'liqligiga qaramay, chegara mojarolari mintaqadagi barqarorlikka xavf tug'diruvchi omil bo'lib qolmoqda.

*Hindiston va Butan* o'rtasida chegaraviy mojarolar mavjud emas. Asosiy masalalar Butanning Xitoy bilan chegara ziddiyatlari va Hindistonning ushbu hududdagi strategik manfaatlari bilan bog'liq. Bu ikki davlatning o'zaro ishonchga asoslangan yaqin munosabatlari mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

*Hindiston va Bangladesh* o'rtasidagi chegara masalalari tarixiy, ijtimoiy va ekologik jihatlariga ega. 2015 yilgi Yer Almashinuvi Bitimi muhim yutuq bo'lgan bo'lsa-da, suv resurslari taqsimoti, noqonuniy immigratsiya va chegara xavfsizligi kabi muammolar hali ham dolzarb. Shu bilan birga, ikki davlat mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash uchun birgalikda ishlashga intilmoqda.

*Hindiston va Myanma* o'rtasidagi chegarada infratuzilma zaif bo'lib, bu mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiladi. Hindiston mintaqani rivojlantirish uchun chegaradosh hududlarda yo'llar va savdo markazlari qurishga intilmoqda. Biroq, Hindistonning chegara bo'ylab devor qurish rejalari ba'zi

mahalliy qabilalarning noroziligiga sabab bo'ldi. Ular erkin harakatlanish huquqlarining cheklanishidan xavotirda.

Hindiston va Myanma o'rtasidagi chegaraviy muammolar asosan xavfsizlik, noqonuniy faoliyatlar va etnik guruhlarining harakatlari bilan bog'liq. Hindiston chegara xavfsizligini kuchaytirish va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga harakat qilmoqda, ammo Myanmadagi ichki siyosiy muammolar va mintaqaviy muvozanatni saqlash zarurati bu jarayonni murakkablashtiradi.

*Hindiston va Afg'oniston* o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri chegaraviy muammolar yo'q, ammo bilvosita masalalar, jumladan, Pokiston bilan murakkab munosabatlar, terrorism tahdidlari va savdo aloqalariga to'siqlar mavjud. Hindiston Afg'onistonni beqarorlikdan chiqarish va mintaqaviy savdo aloqalarini yaxshilash uchun xalqaro hamkorlikka tayanmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Amanov A.K., Ko'palova H. T. DUNYONING BAHSLI HUDUDLARI // Экономика и социум. 2024. №6-2 (121). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/dunyoning-bahsli-hududlari> (дата обращения: 18.02.2025).
2. Amanov A.K., Ko'palova H. T. DUNYONING HECH KIMGA TEGISHLI BO'LMAGAN HUDUDLARI // Экономика и социум. 2024. №7 (122). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/dunyoning-hech-kimga-tegishli-bo-lmagan-hududlari> (дата обращения: 18.02.2025).
3. [https://www.iupr.ru/\\_files/ugd/b06fdc\\_51a4fc5860f94002b485969270c59678.pdf?index=true](https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_51a4fc5860f94002b485969270c59678.pdf?index=true)
4. <http://m.xabar.uz/uz/infografika/abadiy-mavzu>
5. <https://www.bbc.com/news/world-asia>
6. [https://en.wikipedia.org/wiki/2017\\_China\\_India\\_border\\_standoff](https://en.wikipedia.org/wiki/2017_China_India_border_standoff)